

QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV USULLARINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI

Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o'g'li

“Alfraganus university”

Nodavlat oliy ta'lim tashkiloti

“Menejment va marketing” kafedrası dotsenti, PhD.

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada qurilish materiallari sanoati korxonalari strategiyasini ishlab chiqishda, raqobatchilik muhitida uzluksiz faoliyat olib borish imkonini beradigan uzoq muddatli istiqboldagi xulq-atvori, korxona tomonidan o'z faoliyatining barcha maqsadlariga erishish uchun ishlab chiqilgan to'liq umumiy rejasi, qurilish materiallari ishlab chiqarishda boshqaruv, marketing va moliya yo'nalishlaridagi istiqbolli yo'nalishlar jamlanmasi, qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonaning ishlab chiqarish salohiyati, quvvatlari, faoliyat sohasi va ko'lamini kengaytirish, qurilish materiallari sifatini takomillashtirish bo'yicha istiqbolda belgilangan chora-tadbirlar bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: qurilish materiallari sanoati, ishlab chiqarish salohiyati, boshqaruv strategiyasi, innovatsion rivojlanish, innovatsion faoliyat, boshqaruv usullari, boshqaruv mexanizmi, boshqaruv muammolari, boshqaruv jarayonlari, innovatsion boshqaruv, umumiy sifat boshqaruvi, sifatni takomillashtirish.

Аннотация

В настоящей научной статье рассматривается разработка стратегии предприятий отрасли строительных материалов, поведения в долгосрочной перспективе, позволяющего осуществлять бесперебойную деятельность в условиях конкуренции, полного общего плана, разработанного предприятием для достижения всех целей своей деятельности, совокупности перспективных направлений в области управления, маркетинга и финансов в производстве строительных материалов, разработки и реализации стратегии предприятия-производителя строительных материалов, расширение потенциала, мощностей, сферы деятельности и масштабов выпуска, разработаны предложения и рекомендации по перспективным мероприятиям по улучшению качества строительных материалов.

Ключевые слова: промышленность строительных материалов, производственный потенциал, стратегия управления, инновационное развитие, инновационная деятельность, методы управления, механизм управления, проблемы управления, процессы управления, управление инновациями, общее управление качеством, повышение качества.

Annotation

In this scientific article, in the development of the strategy of enterprises in the construction materials industry, the conduct of long-term activities that allow continuous activities in a competitive environment, the complete general plan developed by the enterprise to achieve all the goals of its activities, the set of promising directions in the management, marketing, and financial directions in the production of building materials, proposals and recommendations have been developed on the measures established for the prospect of improving the quality of building materials.

Keywords: building materials industry, production potential, management strategy, innovative development, innovative activities, management methods, management mechanism, management problems, management processes, innovative management, general quality management, quality improvement.

KIRISH

Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarining uzoq istiqbol davrlariga mo'ljallangan raqobatchilik kurashida yashab qolishi va rivojlanishini ta'minlashga imkon beruvchi strategiyalarning ahamiyati so'nggi o'n yilliklarda, ayniqsa, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish bosqichlarida o'ta dolzarb masalalardan biriga aylangan. Shunga mos holda, qurilish materiallari sanoati korxonalarining rivojlanish strategiyalarini o'rganish va ularni bevosita qo'llash zarurati geometriya progressiyasi misolida doimiy ravishda ortib borib, bu bizning ilmiy tadqiqot ishimizda ko'rib chiqilayotgan mavzuning dolzarbligini belgilaydigan omil hisoblanadi.

Xalqaro, milliy va mintaqaviy qurilish materiallari bozorida vaziyatlarning tezkor o'zgarishlari, qattiq raqobatchilik sharoitlarida barcha qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar o'z e'tiborini nafaqat ichki bozorlarda o'z faoliyatining rivojlanish holatiga, balki ular faoliyat olib boradigan har bir muhitda ro'y beradigan o'zgarishlarga moslasha olishlarini ta'minlaydigan uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishga ham qaratishlari zarur bo'ladi. Tashqi muhitdagi o'zgarishlarning jadallashuvi, iste'molchilar talab-ehtiyojlarining o'zgarib borishi, raqobatning kuchayishi, inson resurslari ahamiyatining ortishi, shu jumladan, boshqa bir qator omillar qurilish materiallari sanoati korxonalari faoliyatida strategik menejmentning ahamiyati ortishiga olib keldi.

Hozirgi vaqtda amaliyotda turli xil strategiyalardan foydalanilib, u yoki bu strategiyaning tanlab olinishi korxona o'z rivojlanishining qaysi hayotiy bosqichida turganligi, rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish va uni qo'llashdan aynan qanday natijalarni qo'lga kiritishni kutayotganligiga bog'liq bo'ladi. Bu yerda asosiy masala qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar o'zlari uchun qattiq raqobat kurashi sharoitlarida raqobatchilikdagi ustunliklarini oshirish, iqtisodiy samaradorlikni saqlab qolish imkonini bera oladigan strategik rivojlanishning kerakli yo'nalishlarini ishlab chiqish maqsadlarida aynan nimalarga e'tibor berishi, qanday qoidalarga rioya qilishi lozimligini aniqlab olishdan iborat bo'ladi.

Buning uchun qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarning rivojlanish strategiyasini o'rganish va tahlil qilish, mazkur tarmoqdagi strategik rivojlanish bo'yicha hozirgi davr konsepsiyasini shakllantirish zarurdir. Mazkur maqsadga

erishish uchun maxsus modelni ishlab chiqish zarurati yuzaga kelib, bu model o'z ichiga qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxona missiyasini shakllantirish, o'rganilayotgan korxona doirasida strategiyani amalga oshirishdagi asosiy vazifalar va yo'nalishlarni aniqlash, korxona rivojlanishi strategiyasini tanlab olishga ta'sir ko'rsatadigan bir qator omillar va iqtisodiy ko'rsatkichlarni olishni ko'zda tutadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunlarda ko'plab transformatsiyalangan strategiyalar turlari mavjud bo'lib, ular garchi turli xil kompaniyalar va korxonalar tomonidan qo'llanilsa-da, lekin ularning ko'pchiligi asos bo'ladigan va eng muhim strategiyalarga tayanadi. Bunda ularning har biri korxona atrofidagi ichki va tashqi muhitlardagi o'ziga xos sharoitlarga qarab modifikatsiyalanishi hamda moslashtirilishi mumkin. [1] Kompaniyalarning modifikatsiyalangan strategiyalari asoslarini belgilash uchun mutaxassislar ko'p hollarda tarmoqning asosiy o'ziga xosliklaridan foydalanadilar. [2]

Milliy va xorijiy ilmiy adabiyotlarda iqtisodiyotning turli sohalariga doir XX asr oxiridan boshlab to hozirgi kungacha ishlab chiqilgan strategik boshqaruv yo'nalishidagi tadqiqotlar, konsepsiyalar va ta'rif-tavsiflar ko'plab uchraydi. Ularning ichidan rossiyalik tadqiqotchi-olim O. S. Vixanskiyning strategik boshqaruv borasidagi ta'rifi bizning nazarimizda ancha e'tiborga loyiq deb hisoblanadi:

“...Strategik boshqaruv – bu shunday boshqaruvki, u tashkilotning inson salohiyatiga tayanadi, ishlab chiqarish faoliyatini iste'molchilar talab-ehtiyojlariga qarab yo'naltiradi, tashkilot atrofidagi muhitda yuzaga keladigan da'volarga javob beradigan va raqobatchilikda ustunliklarga erishish hamda uzoq muddatli istiqbollarda yashab qolish, belgilangan maqsadlarga erishish imkonini beruvchi moslashuvchan tarzidagi tartibga solishni va o'z vaqtida tashkilotdagi o'zgarishlarni amalga oshirishni nazarda tutadi.” [3]

Strategik menejmentning maxsus metodlari va usullari rahbar xodimlarga biznesning turli xil ko'rinishlarini baholash hamda zanjirlash, ular uchun mos holdagi barcha strategiyalarni ishlab chiqish, eng muhim yo'nalishlar va muammolarga diqqatni qaratish, yakuniy hisobda esa – uzoq muddatli davrlarda korxonaning barqaror rivojlanib borishini ta'minlashga yordam beradi. Strategik boshqaruv asosida strategik qarorlar yotadi. O'z navbatida, strategik qarorlar – bu strategik darajada qabul qilinadigan qarorlardir. Ay tish kerakki, strategik qarorning oliy shakli bo'lib strategiya sanaladi. [4]

Rivojlanish strategiyasining asosiy g'oyasi korxona faoliyatining shunday bir tarzidagi rejasi ishlab chiqilishidan iborat bo'ladiki, bunda u qurilish materiallari korxonasi faoliyatining samaradorligini ta'minlashi, shu jumladan, uzoq muddatli istiqbolda kutilayotgan foyda va natijalarga erishishga yordam bermog'i lozimdir. [5]

Qurilish materiallari sanoati korxonasining rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish jarayonida uning ekologik jihatlarini ham yoddan chiqarmaslik zarur bo'ladi, chunki bugungi kunlarda resurslarning cheklanganligi sharoitlarida ishlab chiqarish jarayonlarining ekologik masalalari butun dunyoda iqlim o'zgarishi, ekologik xavf-xatar omillarining ortib borishi asnosida o'tkir masalaga aylangan. Qurilish

materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar o'z faoliyatlari davomida yo'l qo'yishlari mumkin bo'lgan noqulay oqibatlarni oldindan aniqlay bilishlari va yuzaga keladigan salbiy natijalarni bartaraf etishga tayyor bo'lishlari lozimdir.

Ekologik vaziyatni yaxshi holatda saqlab qolishga erishish uchun qurilish materiallari korxonalari o'z faoliyatida quyidagi maqsadlarga erishishni ta'minlashga intilishlari lozim bo'ladi [6]: resurslardan oqilona foydalanish; atrof-muhitga zararli chiqindilar chiqarilishini cheklash yoki kamaytirish; ishlab chiqarish jarayonida chiqindi chiqishi hajmlarini qisqartirish; atrof-muhitga xavfli chiqindilar chiqib ketishining oldini oluvchi tozalash inshootlarini o'rnatish.

METODOLOGIYA

Maqolada qurilish materiallari sanoati korxonalarida zamonaviy boshqaruv usullarini rivojlantirish strategiyasining o'ziga xos jihatlarini qiyosiy solishtirish, statistik ma'lumotlarni o'rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Agar qurilish materiallari ishlab chiqarish tarmog'ini umumiy holda tahlil qilib chiqsak, u holda uning missiyasini belgilash zaruratiga ko'zimiz tushadi. Bunda qurilish materiallari ishlab chiqarish tarmog'ining missiyasi aniq va tushunarli tarzda shakllantirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Qurilish materiallari sanoati uchun missiya qurilish sohasi uchun suv va havodek zarur bo'lgan qurilish materiallarining yuqori sifati hamda yetarli hajmini ta'minlashdan iborat bo'lib, shu bilan birga, bu ularning samaradorligini doimiy oshirib borishni ham ko'zda tutadi. Mana shu missiya yo'lidan borish butun qurilish tarmog'ining jadal ravishda o'sishiga erishish imkonini yaratadi.

Qurilish materiallari sanoati missiyasi asosida bu sohadagi faoliyatning bir necha asosiy yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasida resurs va energiya tejamkorligini oshirish;

tabiiy va stixiyali falokatlar ko'p ro'y beradigan hududlar uchun mo'ljallangan modulli qurilish sohasi uchun zarur materiallarni yetkazib berishni rivojlantirish;

qurilish materiallari ishlab chiqarish va umuman, butun qurilish tarmog'ida investitsion muhit yaxshilanishiga ko'maklashish;


qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatida innovatsion qayta jihozlanish strategiyasini ishlab chiqish hamda mazkur tarmoqda innovatsion siklni shakllantirish va uyg'unlashtirish;

qurilish materiallari sanoati uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish va mutaxassislar malakasini tasdiqlash jarayonlariga ko'maklashish

Ko'rsatib o'tilgan bu yo'nalishlar bo'yicha jarayonlarni amalga oshirish borasida qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatining asosiy vazifalari qatorida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin (1-rasm):

Qurilish materiallari sanoati missiyasi, yo‘nalishlari va vazifalari tahlil qilinganidan so‘ng, bu tarmoqda faoliyat yurituvchi korxonalarni strategik boshqarish o‘rganib chiqilishi lozim bo‘lib, bu mazkur korxonalarining tashqi o‘zgarishlarga moslashuvchanliklarini, ularning faoliyati rivojlanish istiqboli va yangi imkoniyatlar hamda bozordagi yangiliklarga nisbatan ochiqqligini ta‘minlashi zarurdir.

Bu yerda birinchi navbatda strategik boshqarishning ahamiyatini tavsiflovchi nazariy manbalarga murojaat qilish lozim bo‘ladi.



1-rasm. Qurilish materiallari sanoatining missiya doirasidagi asosiy vazifalari¹

Mana shunday qilib, strategik boshqaruv o‘zida ko‘plab cheklovlar sharoitida belgilangan maqsadlarga erishish bo‘yicha aniq rejalashtirilgan harakatlar tizimini namoyon qiladi. Boshqacha aytganda, strategik boshqaruv – bu tashkilotning rivojlanishini belgilangan uzoq muddatli maqsadlarga mos holda boshqarishdir.


Shunday qilib, qurilish materiallari sanoati korxonalarini strategik boshqarishni ham maqsadga yo‘naltirilgan, asosli yechimlar va ko‘zda tutilmagan holatlarga qarshi javob harakatlarini ishlab chiqish yo‘li bilan amalga oshiriladigan tashkilot rivojlanishining zaruriy sharti deb qarash mumkindir.

Samarali strategik boshqaruv yuqori boshqaruv bo‘g‘ini rahbarlariga quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi (2-rasm).

Ma‘lumki, har bir korxona yoki kompaniya singari, qurilish materiallari korxonasi ham o‘z faoliyati davomida o‘zgarib, rivojlanib boradi. Bu ham ichki, ham

¹ Muallif ishlanmasi

tashqi muhitdagi ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘ladi. Tashqi muhitning dinamik o‘zgarishlari sharoitlarida (va ayniqsa, so‘nggi yillar davomida ro‘y bergan pandemiyadan keyingi davrlarga o‘xshash hollarda) qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonaning faoliyat yuritish jarayonida korxona rahbariyati uning rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishi lozim bo‘ladi.



2-rasm. Samarali strategik boshqaruvda yuzaga keladigan imkoniyatlar¹

Sanoat korxonasi uchun strategiyani ta’riflash – bu korxonaga raqobatchilik muhitida doimiy va muvaffaqiyatli tarzda faoliyat yuritishga imkon beruvchi o‘rta va uzoq muddatli istiqboldagi xulq-atvori, korxona tomonidan o‘z missiyasi va maqsadlariga erishish jarayonlarini amalga oshirishning umumiy, har tomonlama ishlab chiqilgan rejasi, ishlab chiqarishda menejment, marketing, moliya sohasidagi istiqbolli faoliyat yo‘nalishlari jamlanmasi, korxonaning ishlab chiqarish salohiyati va quvvatlarini, faoliyat sohasi va ko‘lamini rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan yakuniy mahsulot sifatini takomillashtirish bo‘yicha istiqbolli xususiyatdagi chora-tadbirlar rejasi sifatida talqin qilinishi mumkindir.

Shunga ko‘ra, tadqiqot muallifining fikricha, qurilish materiallari sanoati korxonalari strategiyasini quyidagicha ta’riflash mumkin:

Qurilish materiallari sanoati korxonalari strategiyasi – bu raqobatchilik muhitida uzluksiz faoliyat olib borish imkonini beradigan uzoq muddatli istiqboldagi xulq-atvori, korxona tomonidan o‘z faoliyatining barcha maqsadlariga erishish uchun ishlab chiqilgan to‘liq umumiy reja, qurilish materiallari ishlab chiqarishda boshqaruv, marketing va moliya yo‘nalishlaridagi istiqbolli yo‘nalishlar jamlanmasi, qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonaning ishlab chiqarish salohiyati, quvvatlari, faoliyat sohasi va ko‘lamini kengaytirish, qurilish materiallari sifatini takomillashtirish bo‘yicha istiqbolga belgilangan chora-tadbirlar rejasidir.

Rivojlanish yo‘nalishlarini tanlab olish uning asoslanishini, umumiy tamoyillari ishlab chiqilishini, shu jumladan, qurilish materiallarini ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi korxonalar darajasida rivojlanish jarayonlarini boshqarish bo‘yicha tizimli takliflarning ishlab chiqilishini talab qiladi. Strategik boshqarishni ishlab chiqish va uni joriy qilishda korxona rahbariyatida bir qator qiyinchiliklar – rivojlanish istiqbollari yetarlicha tashkil eta bilmaslik yuzaga kelishi mumkin. Ko‘pchilik hollarda boshqaruv jarayonlarini shaklga solib olish (formallashtirish) mavjud

¹ Muallif ishlanmasi

bo'lmaydi, rahbariyat aksar hollarda qarorlarni o'z intuitsiyasiga tayanib hamda korxona boshqaruvining quyi darajalari bilan kelishib olmagan holda qabul qiladi. Strategik rejalarni o'z vaqtida dolzarblashtira olmaslik, muhit o'zgarishlaridan ortda qolish kabi muammolar yuzaga keladi.

Shuningdek, aniq ishlab chiqilgan strategik rejalar har doim ham ularni joriy qilishda ijobiy samara keltira olmaydi. Chunki ularni ishlab chiqish uchun menejerlar tomonidan rejalashtirish vazifalarining har tomonlama ko'rib chiqilishi zarur bo'ladi, korxonaning ichki muhitini va uning ichidagi o'zaro aloqalarni sinchiklab o'rganish ham talab qilinadi.

Strategik boshqaruv borasida ko'rsatib o'tilgan kamchiliklarga qaramasdan, qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarini rivojlantirish tanlab olingan rivojlanish strategiyalari bo'yicha ishlab chiqilgan dasturlar doirasida amalga oshirilishi lozim. Bu haqda rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribalari guvohlik beradi. Bu sohada ko'plab izlanishlar olib borgan olimlar va tadqiqotchilarning tajribalariga tayanib aytish mumkinki, bunday strategiyalarning ko'plab turlari mavjuddir. Ular bir-biridan detallashtirilish darajasi, belgilangan maqsadga erishish shart-sharoitlari kabi jihatlar bo'yicha farqlanishi mumkin.

Masalan, strategik boshqaruv amaliyotida mazkur strategiyalarning quyidagicha tasniflanishi keng tarqalgan:

1. Korporativ strategiya (tashkilot va umuman, uning butun faoliyati uchun) – bu butun tashkilot uchun mo'ljallangan strategiya bo'lib, u menejmentning yuqori bo'g'ini tomonidan ishlab chiqiladi.

2. Ishbilarmonlik strategiyasi (faoliyatning har bir alohida turi uchun) – qoidaga ko'ra, mazkur strategiyani ishlab chiqishda bozordagi raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida biznesning bitta yoki ikkita o'zaro bog'liq sohalariga diqqat qaratiladi.

3. Funktsional strategiya (funktsional yo'nalish uchun) – tashkilotdagi bo'linmalarning biri faoliyatidagi muammolarni hal qilishga qaratiladi.

4. Operatsion strategiya (asosiy tuzilma birliklari – zavodlar, funksional yo'nalishlar ichidagi bo'limlar uchun ancha tor yo'nalishli strategiya) – bu tashkilotning alohida bo'limlarini ancha to'laroq tarzda olib qarash va ularning faoliyatini tahlil qilishga imkon beradi. Qoidaga ko'ra, strategiyalarning bunday tasniflanishi diversifikatsiyalashgan tashkilotlarga xos bo'ladi.

Jamlanga holda strategiyalarning yuqorida ko'rsatib o'tilgan turlari bir-biri bilan jips bog'langan bo'lib, o'ziga xos ierarxik piramidani tashkil etadi. [7]

Shuningdek, tadqiqot muallifi tomonidan olib borilgan o'rganishlar natijasida qurilish materiallari sanoati korxonalarini rivojlantirish strategiyalarining quyidagi yana bir necha namunalari ham keltirish mumkinligi aniqlandi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkindir (1-jadval).

Yuqorida aytilganlarni umumlashtira turib, shu haqida xulosa chiqarish mumkinki, strategik boshqaruv qurilish materiallari sanoati korxonalariga belgilangan maqsadlarga erishishni ta'minlash, milliy bozorda mahalliy qurilish materiallaridan foydalanishni oshirish va eksportga qaramlikni kamaytirish uchun zarurdir. Hozirgi davr sharoitlarida qurilish materiallari korxonalarida ishlab chiqilgan va

qo'llanilayotgan zamonaviy boshqaruv strategiyasi tarmoq korxonalariga tashqi muhitda paydo bo'layotgan o'zgarishlarga va ichki bozordagi ehtimoliy muammoli holatlarga yetarlicha tezkor moslashish, o'z rentabelligini oshirish va raqobatbardosh bo'lish imkonini beradi.

1-jadval

Hozirgi davr rivojlanish strategiyalari turlari va ularning mazmuni¹

№	Strategiya turi	Strategiyaning mazmuni
1	Korxonaning adaptiv (moslashuvchan) rivojlanish strategiyasi	Doimiy ro'y beradigan o'zgarishlar sharoitlarida korxonaning barqaror o'sib borishini ta'minlash strategiyasi bo'lib, bunda u asosan tashqi va qisman korxonaning samarali faoliyatiga xavf tug'diruvchi deb qaraladigan ichki muhitiga qaratiladi. Mazkur strategiya sharoitida rivojlanish yo'nalishlari ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash, raqobatbardoshlikni oshirish, bozorda korxonaning ulushini oshirish kabilardan iborat bo'ladi.
2	Tezkor o'sish strategiyasi	Bu strategiya boshqa korxonalar bilan qo'shib ketish, raqobatchilarni o'ziga qo'shib (yutib) olish jarayonlariga asoslanadi.
3	Korxona barqarorligini ta'minlash strategiyasi	Uning maqsadi bo'lib ichki va tashqi muhitlardagi ehtimoliy o'zgarishlardan kelib chiqadigan yo'qotishlarni minimallashtirish yoki bartaraf etish hisoblanadi.[8]

Shuningdek, qo'shimcha qilish lozimki, mazkur strategiya korxona o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga erishilishini ko'zda tutuvchi reja va vazifalar to'plamini namoyon qilishi ham kerak.

Rivojlanish strategiyasini shakllantirishda korxona rivojlanishining barcha tendensiyalarini hisobga olish zarur. Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonaning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash uchun quyidagi omillar va ko'rsatkichlarni o'rganish hamda ularni tahlil qilib chiqish tavsiya etiladi: iqtisodiy samaradorlik omili; bozor kon'yunkturasi rivojlanishi omili; qarzga olingan va o'z mablag'lari hajmi; rentabellik ko'rsatkichlari; debitorlik va kreditorlik qarzlari hajmi; mehnat unumdorligi; ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga yordam beradigan yuqori texnologiyali qurilma-jihozlar mavjudligi; yuqori malakali personal mavjudligi; korxonaning oqilona motivatsion siyosatini ishlab chiqish; zamonaviy yuqori sifatli materiallardan foydalanish va innovatsiyalarni ishlab chiqishga investitsiya kiritish; raqobatchilar soni va ularning faoliyatini tahlil qilib, o'rganib chiqish. Shuningdek, qurilish materiallari sanoatida hozirda ham ayrim paytlarda namoyon bo'layotgan ojiz tomonlarni ham hisobga olish zarur:

1. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalari faoliyatining davlat organlari tomonidan nazorat qilinishining yuqori darajasi;
2. Tarmoqdagi yirik va kuchli korxonalar tomonidan endigina paydo bo'lgan korxonalarning yutib yuborilishi xavfi;
3. Yuqori malakali kadrlar taqchilligi;

¹ Muallif ishlanmasi

4. Raqobatning yuqori darajasi, ayrim hollarda esa monopol vaziyatlarning yuzaga kelishi;
5. Yangi jozibador investitsion va shu kabi loyihalar kamligi yoki yo'qligi;
6. Qurilish materiallari va xomashyo narxlarining o'sib borishi;
7. Ayrim hollarda qurilish materiallari ishlab chiqarish va qurilish sohasida stagnatsiya holatlarining yuzaga kelishi (masalan, 2020–2021 yillardagi koronavirus pandemiyasi davridagi kabi holatlar).

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistondagi qurilish materiallari sanoatining umumiy tahlilidan kelib chiqib aytish mumkinki, bu tarmoq mamlakatimizda yetarlicha rivojlanish zahiralarga ega va hozirgi kunda mazkur tarmoq o'sish jarayonlarini boshidan kechirmoqda. Bunda mamlakatimizning qurilish materiallari sanoati korxonalarini xalqaro bozorlardagi tajribalarga asoslanib, yaxshi sifatdagi qurilish materiallaridan foydalanmoqdalar va yuqori texnologiyali qurilmalarni qo'llashni o'zlashtirib bormoqdalar.

O'z navbatida, davlat mazkur sektorni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini amalga oshirib, ayniqsa, innovatsion rivojlanish yo'liga o'tayotgan korxonalar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratib bermoqda. Muntazam ravishda keng ko'lamli qurilish-montaj ishlarini qurilish materiallari bilan uzluksiz va to'liq ta'minlash uchun tenderlar o'tkazish imkoniyatlarini taqdim etmoqda. Bularning barchasi butun qurilish tarmog'ining uzluksiz o'sib borishi, turli xil ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish va natijada mamlakatimiz aholisining turmush sharoitlarini yaxshilash uchun zamin hozirlanishiga imkon beradi.

Amalga oshirilgan o'rganishlarimiz asosida shunday xulosa chiqarishimiz mumkinki, qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarining rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish va uni amalga qo'llash mazkur korxonalardagi ishlab chiqarish jarayonlarining sifat ko'rsatkichlari ortishiga hamda ularning raqobatbardoshligi mustahkamlanishiga olib keladi. Shunday qilib, qurilish materiallari sanoati korxonasining rivojlanish strategiyasi – bu murakkab va har tomonlama sinchiklab o'ylab chiqilgan boshqaruv rejasi hisoblanadi.

Umuman olganda, aytish mumkinki, qurilish materiallari sanoatining strategik rivojlanishi bo'yicha zamonaviy konsepsiya istiqbol davrlarida qurilish materiallari korxonalarining rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish talabini kun tartibiga qo'yadi. Bunda ular yangi innovatsion materiallardan foydalanish, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, jumladan, korxonaning turli xil iqtisodiy ko'rsatkichlari hamda omillarini tahlil qilib borishga o'z diqqatlarini jamlashlari zarur bo'ladi.

Qurilish materiallari korxonasining faoliyatini tashkil etish borasida esa mehnat jarayonlarini aniq tashkil etish, rahbar xodimlarning funksional vazifalarini to'g'ri taqsimlash, oqilona motivatsion siyosatni joriy qilish bo'yicha ishlarni amalga oshirish tavsiya etiladi. Shuningdek, ishlab chiqarish jarayonlarida inson organizmiga va ekologiyaga zararli ta'sirlarni kamaytirishga yo'naltiriladigan tashkiliy-texnik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularni o'z o'rnida amalga oshirib borishga ham alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Shunday qilib, qurilish materiallari sanoati korxonasining asosiy rivojlanish strategiyasi bo'lib, mazkur korxonaning iqtisodiy-moliyaviy va ishlab chiqarish faoliyatining shunday tashkil etish tizimini shakllantirish hisoblanishi lozimki, bunda mazkur tizim istiqbolli salohiyatga ega bo'lishi, korxona ishchi-xodimlarining turmush darajasi barqaror o'sib borishi va yashash standartlarining sifati oshishini, shu jumladan, korxona miqyosida ishlab chiqarish jarayonlarining modernizatsiyalashuvini ta'minlashi zarur bo'ladi.

Bu esa, natijada, mamlakatda turmush farovonligining yuksalishiga va iqtisodiy o'sishning jadallashishiga olib keladi. Qurilish materiallari korxonasining rivojlanish strategiyasi korxonaning raqobatbardoshligini mustahkamlashga yo'naltirilishi kerak va mana shunga bog'liq holda korxonada sifat ko'rsatkichlari hamda tuzilma xususiyatlarining yaxshilanishini ta'minlashga qaratilishi zarur bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Генкин, Е. В. Стратегические аспекты развития потенциала организаций инвестиционно-строительного комплекса / Вестник Университета (Государственный университет управления). – 2015. – № 9. – С. 137–141.
2. Саттарова, Р. Ф. Особенности формирования стратегии развития предприятий строительной сферы / Р. Ф. Саттарова, В. Андрійко // Менеджмент и маркетинг: вызовы XXI века. Материалы III Всероссийской студенческой научно-практической конференции. – Екатеринбург, 2015. – С. 318–321.
3. Виханский, О. С. Менеджмент: учебник / О. С. Виханский, А. И. Наумов. – 5-е изд. – М.: Магистр: Инфра-М, 2014. – С. 195.
4. Дудин, М. Н. Стратегический менеджмент: учеб. пособ. / М. Н. Дудин, Н. В. Лясников. – М.: КноРус, 2016. – 254 с.
5. Цуканова, О. А. Особенности стратегического управления строительными предприятиями / О. А. Цуканова, А. С. Егорова // Научно-технический вестник Санкт-Петербургского государственного университета информационных технологий, механики и оптики. – 2011. – № 5(75). – С. 130–134.
6. Дудин, М. Н. Стратегический менеджмент: учеб. пособ. / М. Н. Дудин, Н. В. Лясников. – М.: КноРус, 2016. – 254 с.
7. Дудин, М. Н. Стратегический менеджмент: учеб. пособ. / М. Н. Дудин, Н. В. Лясников. – М.: КноРус, 2016. – 254 с.
8. Маврина, И. Н. Стратегический менеджмент: учеб. пособ. / И. Н. Маврина. – Екатеринбург: УрФУ, 2014. – 132 с.
9. Matyakubov, A., & Matrizayeva, D. (2019). Sustainable Economic Growth with Innovative Management in Uzbekistan. Theoretical & Applied Science, (8), 250–257.
10. Нуриббетов, Р. И., Мэтякубов, А. Д., & Матризаева, Д. Ю. (2020). Анализ эффективности управления инвестициями в промышленности строительных материалов.

11. Мэтякубов, А. Д., & Матризаева, Д. Ю. (2022). Основные направления привлечения инвестиций на промышленные предприятия.
12. Tuychiyev, A. J., Ostonokulov, A. A., Ibragimov, K. S., & Tursunov, A. S. (2019). Byudjet tashkilotlarida byudjet hisobi. Darslik. – T.: «Iqtisod-Moliya», 329.
13. Туйчиев, А. Ж. Аудит финансовой отчетности. – Ташкент: ТМИ, 2017.
14. Саидов, М. (2021). Развитие конкурентной среды в управлении организациями естественной монополии. Экономика и образование, (4), 6–12.
15. Насретдинова, Ш. С., Мирзаев, Б. С., & Джалилов, Д. А. (2018). Влияние инвестиционной политики на риски инвестиционных проектов. Вестник науки и образования, (13 (49)), 52–54.
16. Зайнутдинов, Ш. Н., Нуримбетов, Р. И., & Султанов, А. С. (2019). Глобализация образования и развитие человеческого капитала. Бюллетень науки и практики, 5(6), 473–479.
17. Рустамов, Ў. И., Байматов, Ш. Х., Ерназарова, Г. П., & Файзуллаев, Ж. М. (2023). Исследование механизма горения деревянных строительных конструкций. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 15, 23–30.
18. Мэтякубов, А. Д. (2022). Развитие промышленности и её роль в национальной экономике. In Инвестиции, градостроительство, недвижимость как драйверы социально-экономического развития территории и повышения качества жизни населения (pp. 153–159).
19. Ravshan, N., & Khurshidjon, K. (2023, December). Improving the Efficiency of Housing Stock Management in the Context of Digitalization. In International Conference on Next Generation Wired/Wireless Networking (pp. 213–222). Cham: Springer Nature Switzerland.